



Jazoni ijro etish muassasalarida insonparvarlik dalolatnomalarini qo'llash borasida yuzaga kelayotgan muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar

Muxtarov Nodirbek
Sherali o'g'li

O'zbekiston Respublikasi IIV huzuridagi I mintaqaviy hudud 14 son Jazoni ijro etish koloniyasi Tezkor-qidiruv bo'limi tezkor vakili kapitan

Jazoni ijro etish muassasalarida insonparvarlik dalolatnomalarini qo'llash mahkumlarni jazoni muddatidan oldin shartli ravishda ozodlikka chiqarish yoki jazoni yengilrog'i bilan almashtirish bugungi kundagi inson qadri uning huquq va erkinliklarini himoya qilish borasidagi islohotlarning yaqqol namunasi desak mubolag'a bo'lmaydi. Mahkum jazo muddatining Jinoyat Kodeksi 73, 74, 89, 90-moddalarida¹ belgilangan muddatni o'tab bo'lganidan so'ng bir oylik muddat ichida jazoni ijro etuvchi muassasa yoki organ ma'muriyati uni jazoni o'tashdan muddatidan oldin shartli ozod qilish yoki jazoning o'talmagan qismini yengilroq jazo bilan almashtirishga taqdim etish masalasini agar mahkum yoki uning advakati tegishli iltimosnama bilan sudga bevosita murojaat etmagan bo'lsa ko'rib chiqishi hamda taqdim qilish yoki rad etish haqida qaror chiqarishi shart. Agarda ma'muriyan mahkumni jazoni muddatidan oldin ozod etish yoki yengilrog'i bilan almashtirishni rad etgan taqdirda, mahkum yoki uning advokati tomonidan sudga iltimosnama bilan murojaat etishga haqli. Bundan ko'rinish turibdiki mahkumga nisbatan insonparvarlik dalolatnomalarini qo'llash uch xil ko'rinishda amalga oshiriladi birinchidan; insonparvarlik dalolatnomasini qo'llash bo'yicha mahkumning sudga iltimosnomasi, ikkinchidan; insonparvarlik dalolatnomasini qo'llash bo'yicha mahkumning advakatining sudga iltimosnomasi, uchinchidan; mahkum yoki uning advakati iltimosnama bilan sudga murojaat etmagan taqdirda muassasa ma'muriyati o'zi komissiya shakllantiradi va hujjatlarni sudga yuboradi.

Agar jazoni ijro etish ma'muriyati tomonidan mahkum ijobiy tavsifga ega deb tegishli hujjatlar bilan ishni ko'rib chiqish uchun sudga yuborilganda yoki mahkum, uning advakati tegishli iltimosnama bilan sudga murojaat etgan taqdirda sud ishni Jinoyat Protsessual Kodeksi 536-moddasida belgilangan tartibda ko'rib chiqadi. Sud ishni ko'rib chiqib, mahkumga nisbatan qonunda belgilangan tartibda jazosining muddatidan oldin shartli ozod qilinishiga yoki jazoni yengilrog'i bilan almashtirishga noloyiq deb topib rad etsa, ishni qayta ko'rib chiqish JIKning 164-moddasida²

¹ O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi Toshkent. Adolat 2021-yil. <https://lex.uz/acts/-111453>

² O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga sharh. Umumiy qisim . Rustamboev M.X. Toshkent 2016-yil.

belgilangan tartibda olti oy muddat o'tganidan so'nggina qayta iltimosnama kiritishi va sudda ko'rib chiqilishi mumkin. Shuningdek mahkumni jazodan muddatidan oldin shartli ozod qilish yoki jazoni yengilrog'i bilan almashtirish jazoni ijro etish ma'muriyati tomonidan ko'rib chiqilib rad etilgan taqdirda, ishni qayta ko'rib chiqish uch oy muddat o'tganidan so'nggina basharti mahkum belgilangan rejimga va mehnatga vijdonan munosabatda bo'lsa qayta ko'rib chiqilishi mumkin. Ammo bu borada ham qonunchiligidizda turli muammo va kamchiliklar ko'zga tashlanib turibdi.

Xususan aynan insonparvarlik dalolatnomalarini qo'llash, uning ishini ko'rib chiqish, tuziladigan komissiya tarkibi va uni o'tkazish muddatlari aniq qonunchilik bilan belgilanmaganligini ko'rishimiz mumkin buni yanada mustahkamlash uchun qonun loyihasini ishlab chiqish va Ichki ishlar vazirligining alohida buyrug'ini qabul qilish lozim.

Yana shuni alohida takidlash joizki, jazoni ijro etish tizimida xususan mahkumlarga nisbatan insonparvarlik dalolatnomalarini qo'llashda JIKning 113-moddasida belgilangan tartibda mahkumni Manzil-koloniyalariга o'tkazishni ko'rib chiqish aynan bir normativ huquqiy hujjat yo'qligi haatto JIKning 164-moddasida ham bu haqida hechqanday ma'lumot keltirilmaganligi, amaliyotda bu borada turli muammolar yuzaga kelayotganligini ko'rishimiz mumkin, bu boradagi kamchiliklarni oldini olish maqsadida JIKning 164-moddasiga mahkumlarni manzil koloniyalariга o'tkazish tartibini ko'rib chiqish masalasini ham kiritish va alohida bir qonunchilik normasini qabul qilish lozim.

Jazoni ijro etish muassasalarida mahkumlarga nisbatan insonparvarlik dalolatnomalarini qo'llash uni ko'rib chiqish tartibi aniq vaqtlar oralig'ida amalgalashirilishi lozimligi belgilanmagan bo'lib buning o'zi ham amaliyotda turli muammolarni va qonun buzilish holatlarini vujudga keltirmoqda yuzaga keltirmoqda.

Bu boradagi islohotlarni amalgalashirish eng avvalo jazoni ijro etish muassasasida qo'llanilayotgan insonparvarlik dalolatnomalarini qonun darajasida mustahkamlash va yuzaga kelayotgan qonun buzulishi holatlarini oldini olishda muhum rol o'ynaydi.

Foydalanilgan va tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent. – Adolat. 2023 y. бет
2. O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjalariга o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi 2015 yil 10 avgust qonuni O'zbekiston Respublikasi qonun hujjalari to'plami. – Toshkent, 2015. – № 32. – 425-m.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Sud-huquq tizimini yanada isloq qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2016 yil 21 oktyabr farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjalari to'plami. – 2016. – № 43. – 497-m.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi 2017 yil 7 fevral PF-4947-son farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjalari to'plami. – 2017. – № 6. – 70-m.

5. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi Toshkent. Adolat 2021-yil
6. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi 2021 y Toshkent. Adolat
7. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksi 2021 y Toshkent. Adolat